

Eshonqulov O.S.

*SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi (otto.otabek@gmail.com)***TILSHUNOSLIKDA MAQOLLAR TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI**

Аннотация. В данной статье говорится об этапах развития немецких пословиц. На примерах можно увидеть, в каких источниках впервые появились немецкие пословицы, их значения и насколько они изменились. Также показаны словари, составленные из немецких пословиц.

Ключевые слова. Пословицы, выражения, словари лингвострановедческие.

Annotation. This article talks about the stages of development of German proverbs. Using examples, you can see in which sources German proverbs first appeared, their meanings and how much they have changed. Also shown are dictionaries compiled from German proverbs.

Key words. Proverbs, expressions, dictionaries, linguistic and cultural.

Xalq donoligi xazinasi bo'lgan maqollarni to'plash jarayoni juda qadimgi vaqtlardan boshlangan. Maqollarning ilk qaydlari Aristotel (Arastu)ga tegishlidir. 1500-yilda Erasmus Rotterdamskiy antik maqol va matallar to'plamini tuzgan. Hatto 1600-yillarga qadar xalq iboralari va masallari (rivoyatlari) to'plamlari mavjud bo'lganligi isbotlangan.

Nemis tilidagi pamek materialni o'rganish tarixiga o'tayotib, qayd qilish joizki, nemis tilining avvalgi maqol materiallari to'g'risida ma'lumot kam. Ajdodlardan meros sifatida yetib kelgan eng birinchi maqollar qadimgi nemis qo'l yozmalaridan biri bo'lgan "Gildebrand haqidagi qo'shiq"¹ da qayd qilingan. Maqollarni yana qayta XIV asrda rohib Sent-Galler Notker Labeoning² ishlarida uchratish mumkin. Ularning soni kam bo'lishiga qaramasdan, ular asosida tanishish jarayonlarida o'zgargan axloqning ta'siri to'g'risida xulosa chiqarish mumkin edi. Biroq bunday kam sonli meros asosida o'sha paytlarda maqollar kam bo'lgan degan shoshilinch xulosaga kelish mumkin emas, aksincha, savod jihatidan taraqqiy etayotgan xalqda erta rivojlanish pallalarida maqollarda ijtimoiy tajribani, dastlabki axloq me'yorlarini uzatish singari muhim vazifa aks etishi kerak edi. Shuni ham aniqlashtirish joizki, XV asrga qadar o'rta asr nemis maqollari kamdan-kam hollarda bevosita meros sifatida o'tgan, ko'p hollarda ular bilvosita, ya'ni adabiy ishlov berilgan yoki qayta ishlangan holatda, masalan maqolchi shoirlar Herger va Shperfogelning³ asarlarida, shuningdek Freydankning "Kamtarlik"⁴, Gugo fon

¹Wolfram Euler: Das Westgermanische – von der Herausbildung im 3. bis zur Aufgliederung im 7. Jahrhundert – Analyse und Rekonstruktion. Verlag Inspiration Un Limited, –London/Berlin 2013, (Langobardische Fassung des Hildebrandsliedes auf S. 213–215.

²Notker: Gesta Karoli. In: Quellen zur karolingischen Reichsgeschichte. 3. Teil, herausgegeben von Reinhold Rau (FSGA 5), –Darmstadt. 1969. –S. 321–427.

³Gustav Roethe: Sammelartikel Spervogel. Allgemeine Deutsche Biographie (ADB). Band 35. –Leipzig: Duncker & Humblot, 1893. –S. 139–144.; Ulrich Müller: "Herger": Ein Sangspruch-Sänger aus "Minnesangs Frühling", aus "Minnesangs Winter" oder aus "Minnesangs Zweitem Frühling"? Rüdiger Krohn (Hrsg.): "Dâ hoeret ouch geloube zuo": Überlieferungs- und Echtheitsfragen zum Minnesang. Beiträge zum Festkolloquium für Günther Schweikle anlässlich seines 65. Geburtstags. Hirzel, –Stuttgart/Leipzig. 1995. –S. 139–154.

⁴Josef Klapper: Die Sprichwörter der Freidankpredigten. Ein Beitrag zur Geschichte des ostmitteldeutschen Sprichworts und seiner lateinischen Quellen = Proverbia Fridanci. Wort und Brauch, Band 16. Marcus. –Breslau, 1927. –S. 358.

Trembergning “Qochoq” singari didaktik mazmunli nisbatan yirik asarlarda, yoki juda ko‘p hollarda lotin tilidan o‘zlashgan shakllarda yetib kelgan.

Eng oldingi maqollar nashrlariga 1023-yilda Egbert fon Lyuttix tomonidan tayyorlangan va lotincha tahrirdagi nemis maqollaridan tashkil topgan “Fecunda ratis” lot., “Das vollbeladene Schiff” nem. “Yuk ortilgan kema”ni kiritish mumkin. Bunday to‘plamlar, eng avvalo, cherkovlarda va monastirlarda lotin tilini va axloqni o‘rgatish uchun xizmat qilgan; shu bilan birga ular xalq maqollarining saqlab qolinishiga hissa qo‘shgan.

XI asrdan yetib kelgan va XV asrga qadar saqlanib qolgan to‘plamlar, shuningdek bir martalik nashrlar o‘rta asr maqollar materiali turli manbalardan boyigan degan xulosaga kelish imkonini beradi: ular mahalliy folklor ifodalaridan, xalq mulkiga aylangan adabiy sentensiyalardan, jumladan hamda boshqa xalqlardan olingan o‘zlashmalardan tashkil topadi. Zero, ko‘plab maqollarni etimologiyasiga ko‘ra quyidagi qatlamlarga tegishli deb hisoblash mumkin: **antik davrga**: “Schuster, bleib bei deinen Leisten”, “Eine Hand wäscht die andere”; **injlga**: “Den seinen gibt' s der Herr im Schlaf”, “Hochmut kommt vor dem Fall”; **o‘zlashmalarga**: “Lügen haben kurze Beine” – Yolg‘onning umri qisqa, “Neue Besen kehren gut” – Yangi supurgi yaxshi supiradi, “Der Krug geht so lange zu Wasser, bis er bricht” – Ko‘za kunda emas, kunida sinadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, nemis maqollarining katta qismi injilda keltirilgan Yohanning (Ioann), Matfeyning, Mark kabilarning gaplaridan, rimliklarga, korinfliklarga, galatyaliklarga yo‘llangan nomalardan; Sulaymon alayhi salomning va‘zlaridan kelib chiqqan. Masalan: “Wer Ohren hat zu hören, der höre” – Teshik quloq eshitadi. Lyuterning ifodalari ham “Gute Werken haben keine Namen” – Ezgu ishlar oshkor etilmaydi kabi maqollar sirasiga kirgan. Shu o‘rinda qo‘shimcha qilib o‘tish joizki, cherkov va insonparvarlik jarayonlari sharofati bilan bugungi kunga qadar yetib kelgan nemischa maqollarining ancha qismi antik davrdan kirib kelgan. Qolaversa, quyidagi nemis tili maqollari turkumi “Verstand macht Schaffen” – (Aql yaratadi) ham kirgan.

XV va XVI asrlar oralig‘ida nemis olimlari asl nemis maqollarini to‘plashga, ularning lotin tilidan tarjimasiga – Bebel, Proverbia Germanica (nemischa maqollar) 1508-yil⁵ – shuningdek, o‘z to‘plamlariga grek va rim adabiyotining maqolli ifodalari va jumladan tizimli qo‘shishga kirishdilar. Masalan, Erazm Rotterdamskiyning “Adagorium Collectanea”⁶ (Maqollar to‘plami, 1500-y.) paydo bo‘lishi Yevropa tarixidagi katta voqea bo‘ldi.

XV – XVI asrlar nemis maqolining gullab-yashnagan davri bo‘ldi. XVII asr o‘rtasiga qadar u jadal taraqqiy etdi. O‘sha paytlardayoq maqollar donolik haqidagi saboq yoki “kuchli isbot” (“starcke beweisung” starke Beweisung) - Luther sifatida qaralgan va didaktik maktublarda, satira va va‘zlarda o‘z aksini topgan. Masalan, Sebastian Brandt, Hans Zaks, Tomas Murner⁷ va boshqalar ularni adabiyotda qo‘llashga moslashtirganlar, qolaversa, maqollar ko‘pincha didaktik-satirik namoyishda va masallarda umumlashmalar uchun kompozitsion element, dastlabki nuqtaga aylangan. Maqollarda xalqning eng yaxshi hayot tarzi uchun kurashi bilan bir qatorda ma‘naviy-diniy, ijtimoiy va siyosiy qarama-qarshiliklar in‘ikos etdi. O‘sha vaqtlardayoq maqollar o‘z mazmuni bilan monaxlikka, saroydagi hayotga qarshi kurashni

⁵H.D.Suringar. Heinrich Bebel's Proverbia Germanica. –Leiden. 1879. –S. 684.

⁶Adagiorum D. Erasmi Roterdami epitome. –Erasmus, Desiderius: Amstelodami Ex officina Elzeviriana, sumptibus societatis. –1663. –S. 622.

⁷H. Schönfeld, Die kirchl. Satire u. religiöse Weltanschauung in B.s Narrenschiff u. Erasmus' Narrenlob. Berlin: Modern Language Notes 7, 1892. –S. 214.; Das Gemerkbüchlein des H.S. (1555-1561) nebst e. Anhang, Die Nürnberger Meistersinger-Protokolle v. 1595-1605, 2 Bde., hg.v.K. Drescher, 1898. S. 124.; J. Schutte, „Schympff Red“, Frühformen bürgerl. Agitation in Th. M.s „Großem Lutherischen Narren“, 1973. S. 301.

ifodalagan. Biroq kamsituvchi (qo‘pol, haqoratli) maqollar mazkur bosqichda to‘plangan tajribaga nisbatan qarama-qarshilik kuchini kamroq darajada ko‘rsatib berdi. Islohot davri nemis maqollari to‘plamini “lotincha libos” siz nashr etish imkonini berdi. Bunday nashrlarga ilk qadam 1529-yilda “Drey hundert Gemeyner Sprichwörter, die wir Deutschen uns gebrauchen” (Nemislar tomonidan qo‘llanadigan jami 300 ta maqol) nomli ish bilan Yohan Agrikola⁸ tomonidan tashlangan edi. Shu yilning o‘zida “Das Ander teyl” (Boshqa bir qism) to‘plami, 1534-yilda esa “Sybenhundert und Fünffzig Teutscher Sprichwörter” – (750 ta nemischa maqollar) to‘plami va 1548-yilda mazkur to‘plamning davomi chiqdi. Mehnat va ezgu faoliyatni madh etuvchi va ayni vaqtda saroy tartibi, afzalliklarini tanqid qiluvchi islohotchilik ongi va fuqarolik o‘z-o‘zini anglash bu o‘rinda nemis tiliga bo‘lgan muhabbat bilan birlashdi. Sebastian Frankning “Maqollar to‘plami” va uning ikkinchi qismi 7000 ifodani qamrab oladi va shundan dalolat beradi. Bu paytga kelib ancha savodli omma ushbu ishlarni mamnuniyat bilan qabul qildi.

Maqolshunos Egenolfning kitoblari ham mutloq muvaffaqiyatga ega bo‘lib, ularga yuqori darajadagi maqsadga muvofiqlik bilan 1548-yilda nashr qilingan va XVII asr oxiriga qadar “Sprichwörter, Schöne, Weise Klugreden” – (Maqollar, go‘zal dono nutqlar) nomi ostida qayta nashr qilingan Agrikola va Frankning maqollar jamlanmasiga kiritilgan. Bu nashrlar XIX asrga qadar davom ettirilgan ahamiyatli maqollar to‘plamining butun qatorini boshlab berdi.

XVII asrda 1604–1605-yillarda nashr qilingan Fridrix Petersning “Der Teutschen Weisheit” – (Nemislar donoligi) to‘plami, 1630-yilda 2200 – 2300 lug‘at maqolalari bilan nashr qilingan “Florilegium Politicum” – (Siyosiy maqollar) yuqorida qayd qilingan nashrlar ro‘yxatini to‘ldirdi. Har ikkala olim ilgarilab boruvchi adabiyotni hamda shaxsiy tajriba asosida axborot yig‘ishni manba sifatida qayd qildilar. Ular axloqiy tarbiya beruvchi iqtiboslar va izohlardan deyarli voz kechdilar. Biroq F.Peters iqtiboslarning o‘ziga xos xarakterini tan olar edi. Yuqorida tilga olingan olimlardan tashqari maqollar materiali bilan tilshunoslar Brotxer, Kurt va Karl Hayns Berger ham shug‘ullanganlar. Rohrig Lutz va Otto Cato ismlari esa paremiologiyaning adabiyot bilan chambarchas aloqasidan dalolat beradi. Xulosa qilib aytganda tilshunoslikda, jumladan nemis tilshunosligida maqollar tadqiqi ancha davrlarga borib taqaladi. Maqollarning aynan qaysi jihatlari tadqiqini olib borish zamon talabiga ko‘ra ommalashib kelgan. Ikki xalq, o‘zbek va nemis xalqlarining maqollarini lisoniy-madaniy jihatdan o‘rganib chiqish hozirgi ustuvor vazifalardan bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adagiourum D. Erasmi Roterdami epitome. –Erasmus, Desiderius: Amstelodami Ex officina Elzeviriana, sumptibus societatis, 1663. –622 S.
2. Agrikola, Johannes: Drey hundert Gemeyner Sprichwörter der wir Deutschen uns gebrauchen, und doch nicht wissen woher sie kommen. –Hagenau: 1529. –412 S.
3. Friedrich Peters: Der Teustchen Weisheit, 1604/1605. –Berlin: Faksimile Ausgabe, 1983. –S. 386.
4. Gustav Roethe. Sammelartikel Spervogel. Allgemeine Deutsche Biographie (ADB). Band 35., –Leipzig: Duncker & Humblot Verlag, 1893. –158 S.
5. Josef Klapper. Die Sprichwörter der Freidankpredigten. Ein Beitrag zur Geschichte des ostmitteldeutschen Sprichworts und seiner lateinischen Quellen. –Breslau: Breslauer Verlag, 1927. –412 S.

⁸Agrikola, Johannes: Drey hundert Gemeyner Sprichwörter der wir Deutschen uns gebrauchen, und doch nicht wissen woher sie kommen, –Hagenau. 1529. –S. 412.

6. Notker Gesta Karoli. Quellen zur karolingischen Reichsgeschichte. 3. Teil, herausgegeben von Reinhold Rau (FSGA 5). –Darmstadt: Darmstädter Verlag, 1969. –450 S.
7. Richard Moritz Meyer: Hugo von Timberg (ADB) Band 39. –Leipzig: Duncker & Humblot, 1895. –798 S.
8. Schönfeld Hans. Die kirchliche Satire und religiöse Weltanschauung in Brants Narrenschiff und Erasmus' Narrenlob, Modern Language Notes 7. –Leipzig: Akademische Verlagsgesellschaft, 1892. –118 S.
9. Suringar H.D. Heinrich Bebel's Proverbia Germanica. –Leiden: Leidener Verlag, 1879. –684 S.
10. Wolfram Euler. Das Westgermanische – von der Herausbildung im 3. bis zur Aufgliederung im 7. Jahrhundert – Analyse und Rekonstruktion. Langobardische Fassung des Hildebrandsliedes. –London/Berlin: Verlag Inspiration Unlimited, 2013. –321 S.
11. Yvonne Häfner: Franck, Sebastian. Wilhelm Kühlmann u. a. (Hrsg.): Frühe Neuzeit in Deutschland 1520–1620. Literaturwissenschaftliches Verfasserlexikon Band 2, de Gruyter. – Berlin/Boston: Bertz+ Fischer Verlag, 2012, –S. 482.